

BARQAROR INVESTITSİYALAR: SHARQIY VA JANUBI-SHARQIY OSIYO  
MAMLAKATLARI TAJRIBASI

*PhD Maxmasobirova Nigora*

*TDSHU "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida barqaror investitsiyalarni rivojlantirish tajribasi, ularning institutsional mexanizmlari hamda ESG tamoyillarining investitsiya jarayonlariga integratsiyalashuvi tahlil qilingan. Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Indoneziya, Malayziya va Vetnam misolida yashil moliya, yashil obligatsiyalar, yashil sukuklar, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari hamda dekarbonizatsiya strategiyalarining amaliy natijalari yoritilgan. Shuningdek, mintaqada barqaror investitsiyalar rivojlanishining asosiy drayverlari, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar baholangan.

**Kalit so'zlar:** barqaror investitsiyalar, ESG, yashil moliya, yashil obligatsiyalar, yashil sukuk, dekarbonizatsiya, qayta tiklanuvchi energiya, Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, yashil iqtisodiyot.

**Annotation:** This article examines the experience of sustainable investment development in East and Southeast Asian countries, focusing on institutional mechanisms and the integration of Environmental, Social, and Governance (ESG) principles into investment processes. Using the cases of China, Japan, South Korea, Singapore, Indonesia, Malaysia, and Vietnam, the study analyzes the practical implementation of green finance instruments, green bonds, green sukuk, renewable energy projects, and decarbonization strategies. The paper also identifies the key drivers, challenges, and future prospects of sustainable investment development in the region.

**Key words:** sustainable investment, ESG, green finance, green bonds, green sukuk, decarbonization, renewable energy, East Asia, Southeast Asia, green economy.

## KIRISH

XXI asrning birinchi choragida global moliya tizimi va kapital bozorlari chuqur konseptual o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. An'anaviy chiziqli iqtisodiy o'sish modellari o'z o'rnini barqaror rivojlanish paradigmasiga bo'shatib bermoqda. Global iqlim o'zgarishi xavfi, ekologik degradatsiya, ekotizimlar barqarorligining buzilishi va resurslar taqchilligi kapital oqimlarini tubdan qayta yo'naltirish, ya'ni investitsiya qarorlarini qabul qilishda moliyaviy mezonlar bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv mezonlarini integratsiyalash zaruratini yuzaga keltirdi<sup>1</sup>. Ushbu global transformatsiyalar markazida Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi turadi. So'nggi o'n yilliklarda dunyo iqtisodiyotining asosiy sanoat va texnologik drayveriga aylangan ushbu mintaqada jadal industrializatsiya va urbanizatsiya natijasida jiddiy ekologik va iqlimiy xatarlarga duch keldi. Yuqori sur'atlardagi iqtisodiy o'sish va energiya iste'molining ortishi atrof-muhit ifloslanishi darajasini maksimal darajaga ko'tardi. Mazkur holat mintaqada mamlakatlari oldiga

<sup>1</sup> OECD. Responsible Business Conduct and Sustainable Finance: Policy Actions and Market Practices / Organisation for Economic Co-operation and Development. – Paris: OECD Publishing, 2023. – P.31

iqtisodiy taraqqiyot bilan ekologik muvozanatni uyg'unlashtiruvchi uzoq muddatli investitsion strategiyalarni ishlab chiqish vazifasini qo'ydi<sup>2</sup>.

Bugungi kunda Osiyo qit'asi barqaror va yashil investitsiyalar bozorining eng dinamik rivojlanayotgan global markazidir. Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi yetakchi davlatlar innovatsion moliya instrumentlarini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya (QTE) manbalarini rag'batlantirish hamda institutsional qonunchilik bazasini yaratish orqali barqaror investitsiyalarni keng ko'lamda safarbar etmoqda<sup>3</sup>. Mintaqaning ushbu noyob empirik tajribasi barqaror moliya arxitekturasini shakllantirish bosqichida turgan boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun ulkan metodologik va amaliy saboqlar beradi.

Moliya nazariyasida barqaror investitsiya – bu qimmatli qog'ozlar, loyihalar yoki aktivlarni tanlashda an'anaviy risk va daromadlilik modeliga uchinchi o'lchov sifatida ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlarini majburiy ravishda kirituvchi investitsion yondashuvdir. Osiyo makroiqtisodiyotida ushbu yondashuv shunchaki etika sarmoyasi bo'lmay, balki iqtisodiy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

## ASOSIY QISM

### Sharqiy Osiyo mamlakatkarida barqaror investitsiyalar tajribasi va dekarbonizatsiya strategiyalari

Sharqiy Osiyo davlatlari o'zlarining texnologik ustunligi va davlat boshqaruvining yuqori institutsional salohiyati tufayli barqaror investitsiyalarni davlat dasturlari darajasiga ko'targan.

Osiyo mintaqasi global yalpi ichki mahsulot o'sishining qariyb 40% qismini ta'minlab, ayni paytda global issiqxona gazlari emissiyasining va energiya iste'molining eng katta ulushiga egalik qiladi<sup>4</sup>. Shu sababli, mintaqada barqaror investitsiyalar iqtisodiyotni ekologik jihatdan transformatsiya qilishda quyidagi strategik yo'nalishlarni qamrab oladi:

- **Energetik diversifikatsiya:** qazib olinadigan ko'mir va neft xomashyosiga qaramlikni kamaytirib, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga kapital yo'naltirish;
- **Yashil infratuzilma:** eko-shaharsozlik, energiya samaradorligiga ega binolar va resurslarni tejovchi ishlab chiqarish komplekslarini barpo etish;
- **Kam uglerodli transport tizimlari:** Elektr transport vositalari infratuzilmasi va yuqori tezlikdagi temir yo'l tarmoqlarini investitsiyalash;
- **Ijtimoiy inklyuzivlik:** jadal o'sish sharoitida urbanizatsiyaning aholi qatlamlari o'rtasidagi tabaqalanish darajasini pasaytirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash<sup>5</sup>.

**Xitoy Xalq Respublikasi (XXR):** Xitoy global miqyosda yashil investitsiyalarning eng yirik hajmiy bozoridir. Mamlakat hukumati o'zining iqtisodiy modelini sifat jihatidan o'zgartirish maqsadida "Yashil moliya tizimi"ni ishlab chiqdi. Xitoy Xalq Banki (PBOC) regulativ

<sup>2</sup> Asian Development Bank (ADB). Green Finance Development in Asia and the Pacific: Institutional Frameworks and Market Innovations / ADB. – Manila: Asian Development Bank, 2022. – P.14

<sup>3</sup> O'sha manba, – P.47

<sup>4</sup> International Energy Agency (IEA). World Energy Investment Report 2022: Focus on the Asia-Pacific Region / IEA. – Paris: IEA Publications, 2022. – P.22

<sup>5</sup> World Bank. Sustainable Finance and Climate Investment in Emerging Economies / World Bank. – Washington: The World Bank Group, 2022. – P.74

ko'rsatmalari asosida mamlakatda dunyodagi eng yirik yashil kreditlash va yashil obligatsiyalar bozori shakllandi<sup>6</sup>.

Xitoy 2030-yilga kelib uglerod chiqindilari cho'qqisiga chiqishni va 2060-yilga borib karbon neytralligiga erishishni qat'iy maqsad qilib qo'ygan. Bugungi kunda XXR global quyosh panellarining 75%dan ortig'ini va shamol turbinalarining salmoqli qismini ishlab chiqaradi, bu esa uning xalqaro QTE sarmoyalaridagi mutloq yetakchiligini ko'rsatadi<sup>7</sup>. 2025-yilda toza energiya investitsiyalar o'sishining 90% dan ortig'ini ta'minlagan va mamlakat YaIMining 11,4% ini tashkil etgan. 2025-yil 3-chorak holatiga ko'ra, yashil kreditlar 43,51 trillion yuanga (~6,2 trillion AQSh dollari) yetgan bo'lib, bu 17,5% o'sishni anglatadi. Asosiy yo'nalishlar quyosh energiyasi, shamol energetikasi va batareya texnologiyalaridir<sup>8</sup>.

Xitoyning yashil investitsiyalar tajribasining asosiy jihatlari (2025-2026):

**Bozor yetakchiligi:** Xitoy 2024-yilda energiya transformatsiyasiga 818 milliard dollar sarmoya kiritgan bo'lib, bu boshqa har qanday davlatdan ikki baravar ko'pdir<sup>9</sup>.

**Asosiy sektorlar:** "Yangi uchlik" deb ataluvchi yo'nalishlar – elektromobillar (EV), litiy-ion batareyalar va quyosh energiyasi – eng ko'p kapital jalb qilgan sohalar hisoblanadi<sup>10</sup>.

**O'sish omili:** toza energiyasiz mamlakat yillik 5% o'sish maqsadiga erisha olmasligi mumkinligi sababli ushbu sektor iqtisodiy barqarorlik uchun muhim omilga aylangan.

**Tizimli o'zgarish:** investitsiyalar faqat elektr ishlab chiqarish bilan cheklanmay, balki tarmoq infratuzilmasi, aqlli tizimlar va energiya saqlash yo'nalishlariga ham kengaymoqda. 2025-yilda uzatish infratuzilmasiga 88 milliard dollar yo'naltirilgan<sup>11</sup>.

Quyidagi 1-rasmda dunyo bo'yicha qayta tiklanuvchi energiya manbalariga, jumladan quyosh, shamol va boshqa toza energiya turlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi tasvirlangan. Ma'lumotlar global miqyosda yashil energiyaga sarmoya yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi va bu jarayonda Xitoy kabi yirik iqtisodiyotlar muhim o'rin egallayotganini yaqqol namoyon etadi. Xitoyda barqaror investitsiyalar yo'nalishidagi asosiy tendensiyalar va siyosat quyidagilar bilan asoslanadi:

<sup>6</sup> People's Bank of China (PBOC). Green Finance Guidelines and Regulatory Framework in the Banking Sector / PBOC. – Beijing: China Financial Press, 2021. – P.12

<sup>7</sup> International Energy Agency (IEA). World Energy Investment Report 2022: Focus on the Asia-Pacific Region / IEA. – Paris : IEA Publications, 2022. – P.38

<sup>8</sup> <https://greenfdc.org/china-green-finance-status-and-trends-2025-2026/>

<sup>9</sup> <https://www.weforum.org/stories/2025/07/chinas-green-transformation/>

<sup>10</sup> <https://www.theguardian.com/world/2026/feb/05/china-green-energy-sector-investment-growth>

<sup>11</sup> <https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2025/china>

## China Pulls Far Ahead in Green Energy Investment

Global investment in renewable power and fuels, by country and region (in billion U.S. dollars)



Source: REN21 | Renewables 2025 Global Status Report



statista

### 1-rasm. Dunyo miqosida qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiyalar<sup>12</sup>

**Xalqarolashuv:** Xitoyning toza texnologiya kompaniyalari 2022-yildan beri xalqaro yashil ishlab chiqarishga 220 milliard dollardan ortiq sarmoya kiritgan bo'lib, ayniqsa batareyalar va quyosh energetikasi sohalari yetakchilik qilgan<sup>13</sup>.

**Siyosiy qo'llab-quvvatlash:** barqaror investitsiyalarda davlat korxonalari asosiy o'rinni egallaydi, biroq hukumat xususiy sektorni ham yashil loyihalarga ko'proq jalb qilishga harakat qilmoqda<sup>14</sup>.

**Karbon bozori:** Xitoy dunyodagi eng yirik milliy karbon savdo tizimini boshqaradi va 2023-2024-yillarda tranzaksiyalar hajmi oshgan<sup>15</sup>.

**Hududiy yo'nalish:** past uglerodli shaharlar pilot dasturi kompaniyalar darajasida yashil investitsiyalarni 8%–15% ga oshirgan<sup>16</sup>.

Mamlakatda barqaror investitsiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar quyidagilar hisoblanadi:

**Tarmoq quvvati muammosi:** tezkor rivojlanish elektr tarmog'i imkoniyatlaridanda tezroq o'sib ketganligi tufayli e'tibor endi faqat kengaytirishga emas, balki samaradorlikni oshirish va modernizatsiyaga qaratilmoqda.

**Energiya muvozanati muammosi:** katta yashil investitsiyalarga qaramay, Xitoy energiya xavfsizligini ta'minlash uchun ko'mir elektr stansiyalarini ham qurishda davom etmoqda.

<sup>12</sup> China Pulls Far Ahead in Green Energy Investment <https://www.statista.com/chart/34682/global-investment-in-renewable-power-and-fuels/>

<sup>13</sup> <https://www.lse.ac.uk/granthaminstitute/publication/chinas-green-leap-outward-the-rapid-scale-up-of-overseas-chinese-clean-tech-manufacturing-investments/>

<sup>14</sup> <https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2025/china>

<sup>15</sup> [https://www.ey.com/en\\_cn/insights/china-opportunities/how-is-china-creating-an-environment-for-world-class-green-investment](https://www.ey.com/en_cn/insights/china-opportunities/how-is-china-creating-an-environment-for-world-class-green-investment)

<sup>16</sup> <https://www.nature.com/articles/s41599-026-07607-z>

**Moliyaviy samaradorlik masalasi** yashil fondlar, jumladan ETF va investitsion fondlar 2023-yilda qiyinchilikka uchragan va CSI 300 indeksiga nisbatan pastroq daromad ko'rsatgan.

Umuman olganda, Xitoy Xalq Respublikasining yashil investitsiyalar sohasidagi tajribasi dunyoda eng yirik va tizimli yondashuvlardan biri sifatida ajralib turadi. Mamlakat "yashil moliya" siyosatini keng joriy etish orqali iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni birlashtirishga erishmoqda. Katta hajmdagi davlat sarmoyalari, rivojlangan kredit va obligatsiya bozori hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarida global yetakchilik Xitoyni ushbu yo'nalishda strategik peshqadamga aylantirgan. Shu bilan birga, tarmoq infratuzilmasidagi cheklovlar, energiya balansini saqlash zarurati va ayrim moliyaviy instrumentlarning past rentabelligi kabi muammolar ham mavjud. Shunga qaramay, Xitoyning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanish va uglerod neytralligiga erishish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Yaponiya:** Yaponiyada barqaror investitsiyalar tez sur'atlarda o'sib bormoqda va 2024-yilda taxminan 625 trillion iyena (qariyb 4 trillion AQSh dollari) ga yetdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 16,4% o'sishni tashkil etib, asosan bozor qiymatining oshishi hamda ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillarining kuchli integratsiyasi bilan izohlanadi. Ushbu bozor asosan institutsional investorlar va davlat siyosati islohotlari tomonidan shakllantiriladi, bunda asosiy e'tibor iqlimga o'tish moliyalashtiruvchi (GX – Green Transformation) hamda korporativ boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan<sup>17</sup>.

Yaponiyada barqaror investitsiyalarning asosiy jihatlari quyidagilar bilan farqlanadi:

**1. Katta hajmdagi bozor o'sishi:** barqaror aktivlar hajmi taxminan 625 trillion iyenaga yetib, 2022-yilda boshqaruv ostidagi jami aktivlarning 33% dan ortig'ini tashkil etdi. Bu institutsional investorlar orasida yuqori darajadagi qabul qilinishni ko'rsatadi<sup>18</sup>.

**2. Asosiy omillar:** dunyoning eng yirik pensiya jamg'armasi bo'lgan Government Pension Investment Fund (GPIF) ushbu jarayonning muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi va barqaror investitsiyalar ulushini oshirish bo'yicha maqsadlarini faol kengaytirmoqda<sup>19</sup>.

Mamlakatda barqaror investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari<sup>20</sup>:

**GX (Green Transformation):** Yaponiya iqtisodiyotini 2050-yilgacha uglerod chiqindilarini kamaytirish yo'li bilan transformatsiya qilishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlarga ustuvorlik bermoqda. Shu doirada suveren "Climate Transition Bonds" (iqlimga o'tish obligatsiyalari) joriy etilmoqda.

**ESG integratsiyasi va stewardship:** Institutsional investorlar ESG tamoyillarini investitsiya qarorlariga keng tatbiq etmoqda, ayniqsa boshqaruv kengashlarida gender tengligi va iqlim o'zgarishi masalalariga e'tibor kuchaymoqda.

**Aksiyadorlik faolligi:** ESG bilan bog'liq aksiyadorlik takliflari soni yillik umumiy yig'ilishlarda sezilarli darajada oshgan.

Yaponiyada barqaror investitsiyalar rivojlanishining asosiy tendensiyalari quyidagilardir<sup>21</sup>:

**1-jadval**

<sup>17</sup> <https://www.gsi-alliance.org/wp-content/uploads/2024/01/Japan.pdf>

<sup>18</sup> <https://www.gsi-alliance.org/wp-content/uploads/2024/01/Japan.pdf>

<sup>19</sup> <https://www.wri.org/insights/sustainable-investing-japan-2-ways-build-rising-enthusiasm>

<sup>20</sup> <https://www.gsi-alliance.org/wp-content/uploads/2024/01/Japan.pdf>

<sup>21</sup> <https://www.greenfinanceplatform.org/case-studies/japan-integrating-sustainability-goals-across-investment-industry>

## Yaponiyada barqaror investitsiyalar: asosiy yo'nalishlar va tendensiyalar

Yo'nalishlar	Xususiyati
<b>Bozor o'sishi</b>	Barqaror investitsiyalar 2024-yilda ~625 trillion iyena (~4 trillion USD) ga yetdi, 16,4% o'sish qayd etildi
<b>Asosiy omillar</b>	ESG integratsiyasi, bozor qiymatining oshishi va davlat siyosati islohotlari
<b>Yetakchi institut</b>	GPIF (Government Pension Investment Fund) – dunyodagi eng yirik pensiya jamg'armasi
<b>GX (Green Transformation)</b>	2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishish, Climate Transition Bonds joriy etilishi
<b>ESG va stewardship</b>	Korporativ boshqaruv, gender tengligi va iqlim o'zgarishiga e'tibor kuchayishi
<b>Aksiyadorlik faolligi</b>	ESG bo'yicha aksiyadorlik takliflari sonining ortishi
<b>Asosiy tendensiyalar</b>	Yashil/ijtimoiy obligatsiyalar o'sishi, faol investorlar nazorati, global standartlarga moslashuv
<b>Global standartlar</b>	TCFD, UN Global Compact, Climate Action 100+ bilan moslashuv
<b>Muammolar</b>	ESG ma'lumotlarining to'liq va shaffof ochiqligi yetishmasligi
<b>Imkoniyatlar</b>	Qayta tiklanuvchi energiya, toza texnologiyalar va transition finance rivoji
<b>Moliyaviy innovatsiya</b>	ESG derivativlari va indeks fyucherslari rivojlanishi

**Manba:** muallif tomonidan shakllantirildi

**Barqaror obligatsiyalar o'sishi:** yashil, ijtimoiy va barqarorlikka yo'naltirilgan obligatsiyalar bozori tez rivojlanmoqda.

**Faol stewardship:** investorlar kompaniyalar bilan faol muloqot orqali ularning xulq-atvorini ijobiy yo'nalishga o'zgartirishga harakat qilmoqda.

**Global standartlarga moslashuv:** Yaponiya kompaniyalari TCFD, UN Global Compact va Climate Action 100+ kabi xalqaro standartlarga tobora ko'proq moslashmoqda.

Mamlakatda barqaror investitsion faoliyat bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkindir:

**Ma'lumotlarni oshkor qilish muammolari:** ESG bo'yicha korporativ ma'lumotlarni to'liq va shaffof taqdim etish hali ham muammo bo'lib qolmoqda<sup>22</sup>.

**O'tish moliyalashtiruv (transition finance):** Yaponiya toza energiyaga o'tish jarayonini moliyalashtirishga katta e'tibor qaratmoqda, bu esa qayta tiklanuvchi energiya va toza texnologiyalar sohasida investitsiya imkoniyatlarini kengaytiradi<sup>23</sup>.

**Derivatlar rivoji:** barqarorlikka asoslangan derivativlar, jumladan indeks fyucherslari bozori rivojlanib, investorlar uchun yangi moliyaviy instrumentlar yaratmoqda<sup>24</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiyada barqaror investitsiyalar tizimi nafaqat miqdor jihatdan kengayib bormoqda, balki sifat jihatdan ham chuqur transformatsiyani boshdan kechirmoqda. ESG

<sup>22</sup> <https://www.wri.org/insights/sustainable-investing-japan-2-ways-build-rising-enthusiasm>

<sup>23</sup> <https://www.japanmeetings.org/why-japan/sustainability/>

<sup>24</sup> [https://www.lseg.com/content/dam/ftse-russell/en\\_us/documents/research/japan-sustainable-investment.pdf](https://www.lseg.com/content/dam/ftse-russell/en_us/documents/research/japan-sustainable-investment.pdf)

tamoyillarining institutsional darajada mustahkamlanishi, GX siyosati orqali uglerod neytralligiga yo‘naltirilgan davlat strategiyalari hamda global standartlarga moslashuv jarayoni mamlakatni barqaror moliya sohasida yetakchi davlatlardan biriga aylantirmoqda. Shu bilan birga, bozorning rivojlanishi yangi investitsion instrumentlarning paydo bo‘lishi va moliyaviy innovatsiyalarning kuchayishi bilan birga kechmoqda. Biroq ESG ma‘lumotlarining to‘liq ochiqligi va standartlashtirilishi kabi muammolar hali ham mavjud bo‘lib, ular kelgusida tizimning yanada samarali ishlashi uchun hal etilishi zarur. Umuman olganda, Yaponiya tajribasi barqaror investitsiyalarni iqtisodiy o‘shish, ekologik xavfsizlik va global moliyaviy integratsiyani uyg‘unlashtirgan kompleks model sifatida namoyon etadi.

**Janubiy Koreya:** Janubiy Koreya barqaror iqtisodiyotga o‘tishni raqamlashtirish bilan hamohang tarzda olib bormoqda. Davlatning “Koreya yashil yangi kursi” (Korea Green New Deal) dasturi yashil iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar (AI, 5G va IoT) bilan integratsiya qilishga yo‘naltirilgan<sup>25</sup>. Dastur doirasida aqlli kommunal tarmoqlar (Smart Grids), ekologik toza shaharlar, vodorodli transport va sanoat korxonalarida energiya sarfini optimallashtirish bo‘yicha innovatsion startaplarga davlat-xususiy sheriklik asosida katta hajmdagi investitsiyalar jalb qilinmoqda.

Bundan tashqari, Janubiy Koreya “2050 karbon neytrallik strategiyasi” doirasida iqtisodiyotning yuqori energiya talab qiluvchi tarmoqlarini yashil transformatsiya qilishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Ayniqsa, po‘lat, kemasozlik va kimyo sanoatida chiqindilarni kamaytirish hamda vodorod va elektr energiyasiga asoslangan ishlab chiqarish tizimlariga o‘tish jarayoni tezlashmoqda. Hyundai, Samsung va SK Group kabi yirik korporatsiyalar vodorod energetikasi, elektromobillar va akkumulyator texnologiyalariga faol sarmoya kiritib, mamlakatning yashil innovatsion salohiyatini oshirmoqda<sup>26</sup>.

Umuman olganda Janubiy Koreyada barqaror investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

### 1. Qayta tiklanuvchi energiya

- 2030-yil maqsadlariga erishish uchun quyosh va shamol energiyasi rivojlantirilmoqda.

### 2. Vodorod iqtisodiyoti

- vodorod infratuzilmasi va texnologiyalariga katta investitsiyalar yo‘naltirilmoqda.

### 3. Kelajak transporti

- elektr va vodorod bilan ishlaydigan avtomobillarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

### 4. Iqlim texnologiyalari

- 2030-yilgacha iqlim bilan bog‘liq innovatsiyalarga 100 milliard AQSh dollaridan ortiq mablag‘ ajratish rejalashtirilgan

<sup>25</sup> Government of the Republic of Korea. Korean New Deal Policy Briefs: Green New Deal Strategy. Seoul, 2021.

<sup>26</sup> International Energy Agency (IEA). Korea Energy Policy Review 2024. Paris, 2024.

**Koreya Respublikasi barqaror investitsiyalarining asosiy yo‘nalishlari<sup>27</sup>**

Shuningdek, Janubiy Koreyada yashil moliya tizimi ham jadal rivojlanmoqda. Hukumat yashil obligatsiyalar bozorini kengaytirish va ESG standartlarini joriy etish orqali xususiy sektorni ekologik loyihalarga jalb qilmoqda. Bu esa mamlakatda raqamli iqtisodiyot va barqaror rivojlanish o‘rtasida kuchli sinergiyani shakllantirib, Janubiy Koreyani Osiyoda yashil transformatsiya bo‘yicha yetakchi davlatlardan biriga aylantirmoqda<sup>28</sup>.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreyada barqaror investitsiyalar “Green New Deal” va “Net Zero 2050” strategiyalari asosida tez sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Davlatning kuchli qo‘llab-quvvatlashi natijasida qayta tiklanuvchi energiya, vodorod iqtisodiyoti va kelajak transporti kabi yo‘nalishlarga katta kapital yo‘naltirilmoqda. ESG tamoyillarining moliya bozorlariga keng integratsiyasi esa yashil obligatsiyalar va ESG fondlarining o‘shishini tezlashtirmoqda. Umuman olganda, Janubiy Koreya tajribasi barqaror rivojlanish va iqtisodiy modernizatsiyani uyg‘unlashtirgan samarali model sifatida shakllanmoqda.

**Janubi-Sharqiy Osiyo (ASEAN) mamlakatlarida barqaror investitsiyalar arxitekturasini**

ASEAN mintaqasida barqaror investitsiyalar jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. 2024-yilda mintaqaga kirib kelgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) hajmi 226 milliard AQSh dollariga yetdi. Ushbu natijaga ASEAN ichki investitsiyalarining umumiy investitsiyalardagi 14 foizlik ulushi ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Mintaqada qayta tiklanuvchi energiya, yashil moliya va barqaror infratuzilma asosiy investitsiya yo‘nalishlari hisoblanadi. Shuningdek, yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida “ASEAN Sustainable Finance Taxonomy” (ASEAN barqaror moliya taksonomiyasi) ishlab chiqilgan bo‘lib, u mintaqaviy darajada yagona investitsiya mezonlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda<sup>29</sup>.

Mintaqada barqaror investitsiyalarning asosiy tendensiyalari va omillari quyidagilar sanaladi:

- **Jadal o‘shish:** ASEAN barqaror investitsiyalar uchun eng jozibador mintaqalardan biriga aylanib bormoqda. 2024-yilda FDI oqimlari 8,5 foizga o‘sd<sup>30</sup>.
- **Yashil moliya markazlari:** Singapur mintaqaning yetakchi yashil moliya markazi hisoblanib, 2022-yil holatiga ko‘ra 21,7 milliard AQSh dollarlik barqaror moliyaviy instrumentlarni muomalaga chiqargan. Tailand esa 4,3 milliard AQSh dollari bilan ikkinchi o‘rinda turadi<sup>31</sup>.
- **Mintaqaviy me‘yoriy asoslar:** “ASEAN Sustainable Investment Guidelines” (ASIG) va “ASEAN Taxonomy” investitsion faoliyatda shaffoflik, hisobdorlik hamda Parij iqlim kelishuvi maqsadlariga muvofiqlikni ta‘minlashga xizmat qiladi<sup>32</sup>.
- **Ustuvor sohalar:** qayta tiklanuvchi energiya, aqlli qishloq xo‘jaligi, barqaror transport va energiya samaradorligi investitsiyalar uchun ustuvor yo‘nalishlar hisoblanad<sup>33</sup>.

<sup>27</sup> <https://www.investkorea.org/ik-en/pgm/i-3037/cntnts/front/sst-list.do>

<sup>28</sup> World Bank. Republic of Korea: Climate and Green Finance Overview. Washington, DC, 2023.

<sup>29</sup> <https://www.unepfi.org/regions/asia-pacific/asean-taxonomies-analysis/>

<sup>30</sup> [https://asean.org/wp-content/uploads/2025/10/AIR2025\\_rev17-Okt.pdf](https://asean.org/wp-content/uploads/2025/10/AIR2025_rev17-Okt.pdf)

<sup>31</sup> <https://sea.ub-speeda.com/my/asean-insights/trend-reports/sustainability-and-investment/>

<sup>32</sup> <https://asean.org/wp-content/uploads/2026/04/ASEAN-Sustainable-Investment-Guidelines-ASIG.pdf>

<sup>33</sup> <https://aseanenergy.org/topics/green-finance-and-investment>


**MIntaqada investitsiya imkoniyatlari va tashabbuslar haqida gapirsak**, yashil loyihalarni moliyalashtirishni rag‘batlantirish va energetik transformatsiyani jadallashtirishga qaratilgan yangi “ASEAN Green Investment Catalyst” (AGIC) tashabbusi<sup>34</sup>, Yashil va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga mo‘ljallangan obligatsiyalar bozori (ASEAN Sustainability Bonds)<sup>35</sup>, Iqlim o‘zgarishlariga moslashgan infratuzilma va barqaror shaharlarni<sup>36</sup> kiritish mumkindir.

ASEAN mintaqasida barqaror investitsiyalarni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar va istiqbollarga quyidagilarni kiritish mumkin<sup>37</sup>:

- **Huquqiy-me‘yoriy bo‘shliqlar:** Ayrim ASEAN davlatlarida ekologik va ijtimoiy standartlarni tartibga soluvchi milliy qonunchilik bazasi hali yetarli darajada rivojlanmagan.
- **Investorlarni qo‘llab-quvvatlash:** “ASEAN Investment Facilitation Framework” (AIFF) biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash, shaffoflikni oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish maqsadida joriy etilmoqda.

ASEAN mintaqasiga eng yirik investor sifatida AQSh yetakchilik qilmoqda. 2024-yilda AQSh investitsiyalari 74,4 milliard AQSh dollarini yoki mintaqaga kirgan jami FDI hajmining 32,4 foizini tashkil etdi. Undan keyingi o‘rinlarda Yevropa Ittifoqi davlatlari turadi<sup>38</sup>.

Ta’kidlash lozimki, Janubi-Sharqiy Osiyo Davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) mintaqasida barqaror investitsiyalarni jalb qilish moliya bozori instrumentlarini diversifikatsiya qilish va o‘ziga xos moliyaviy tizimlar sinergiyasi orqali kechmoqda.



3- rasm. ASEAN mintaqasidagi BI strategik modellari<sup>39</sup>

<sup>34</sup> <https://asean.org/asean-member-states-collaborates-with-uk-and-escap-through-the-asean-green-investment-catalyst-agic/>

<sup>35</sup> <https://www.sc.com.my/api/documentms/download.ashx?id=3c4f768f-a290-4722-b9d1-ef55942fbfde>

<sup>36</sup> <https://aseanenergy.org/topics/green-finance-and-investment>

<sup>37</sup> <https://asean.org/our-communities/economic-community/investment-2/>

<sup>38</sup> [https://www.aseanstats.org/wp-content/uploads/2024/06/ASEAN-Statistical-Brief-Vol-9-June-2024\\_fn.pdf](https://www.aseanstats.org/wp-content/uploads/2024/06/ASEAN-Statistical-Brief-Vol-9-June-2024_fn.pdf)

<sup>39</sup> Muallif tomonidan shakllantirildi

**Singapur:** Singapur Janubi-Sharqiy Osiyoning eng yirik moliya markazi (hub) sifatida mintaqadagi yashil sarmoyalar oqimini boshqaradi. Singapur Pul-kredit boshqarmasi (MAS) tomonidan yaratilgan qulay regulyativ muhit va subsidiyalar tufayli mamlakat xalqaro ESG obligatsiyalari va barqaror kreditlar rasmiylashtiriladigan bosh platformaga aylandi<sup>40</sup>. Singapur banklari (DBS, OCBC, UOB) korporativ mijozlarga faqatgina ularning ESG standartlariga muvofiqligi asosida imtiyozli “yashil kreditlar” taqdim etish tizimini yo‘lga qo‘ygan.

**Indoneziya:** Indoneziya ulkan o‘rmon massivlari va bioxilma-xillikka ega bo‘lib, investitsiyalarni aynan tabiiy ekotizimlarni asrash va iqlimiy moslashuv loyihalariga yo‘naltirmoqda. 2018-yilda Indoneziya moliya tarixida ilk bor Sovereign Green Sukuk (Davlat yashil sukuki) qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqardi<sup>41</sup>. Ushbu instrument islomiy moliya qoidalari (Shariat tamoyillari) bilan yashil investitsiya mezonlarini birlashtirib, Yaqin Sharq va global institutsional investorlardan barqaror infratuzilma loyihalariga katta mablag‘ yig‘ish imkonini berdi.

**Malayziya:** Malayziya ham Islomiy moliya tizimini barqaror sarmoyalarning asosiy drayveriga aylantirgan. Mamlakatning “Qiyamatga asoslangan strategik vositachilik” (Value-based Intermediation) konsepsiyasi moliya institutlariga ijtimoiy-ekologik mas’uliyatni yuklaydi. Malayziyada chiqarilayotgan yashil sukuklar qayta tiklanuvchi energiya va ijtimoiy uy-joylar qurilishini moliyalashtirishga xizmat qiladi.

**Vetnam:** Vetnam so‘nggi yillarda xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni yashil energetikaga jalb qilish bo‘yicha yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Davlat tomonidan QTE operatorlari uchun kafolatlangan tariflarning (Feed-in Tariffs) joriy etilishi natijasida Vetnam quyosh va shamol energetikasi quvvatlarini oshirish bo‘yicha Janubi-Sharqiy Osiyoda yetakchi o‘ringa chiqib oldi<sup>42</sup>.

Umuman olganda, Singapur, Indoneziya, Malayziya va Vetnam tajribasi Janubi-Sharqiy Osiyoda barqaror investitsiyalar turli moliyaviy instrumentlar, islomiy moliya modellari, davlat siyosati va qayta tiklanuvchi energetika strategiyalari orqali izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu mamlakatlar o‘ziga xos yondashuvlari bilan ESG tamoyillarini milliy iqtisodiyotga integratsiya qilib, mintaqani global yashil sarmoyalar oqimining muhim markazlaridan biriga aylantirmoqda.

### **Mintaqada innovatsion yashil moliya instrumentlari va ESG investitsiyalarining rivojlanish drayverlari**

Osiyo mintaqasida barqaror investitsiyalar hajmining o‘sishi an’anaviy moliya bozorini diversifikatsiya qilgan bir qator innovatsion instrumentlarning faol qo‘llanilishi bilan bog‘liqdir:

1. Yashil Obligatsiyalar (Green Bonds): Tushgan mablag‘lar faqatgina ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan maqsadli qimmatli qog‘ozlar. Global Barqaror Investitsiyalar Alyansi (GSIA) ma’lumotlariga ko‘ra, Osiyo yashil obligatsiyalar emissiyasi bo‘yicha dunyoda eng yuqori o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda<sup>43</sup>.

<sup>40</sup> Asian Development Bank (ADB). Green Finance Development in Asia and the Pacific: Institutional Frameworks and Market Innovations / ADB. – Manila: Asian Development Bank, 2022. – P.61

<sup>41</sup> World Bank. Sustainable Finance and Climate Investment in Emerging Economies / World Bank. – Washington: The World Bank Group, 2022. – P.92

<sup>42</sup> International Energy Agency (IEA). World Energy Investment Report 2022: Focus on the Asia-Pacific Region / IEA. – Paris : IEA Publications, 2022. –P.51

<sup>43</sup> Global Sustainable Investment Alliance (GSIA). Global Sustainable Investment Review 2022 / GSIA. – Melbourne: GSIA Publications, 2022. – P.55

2. Yashil Sukuk (Green Sukuk): Islomiy moliya bozorida sudxo'rlikdan xoli bo'lgan, aktivlar bilan ta'minlangan va ekologik maqsadlarga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar.

3. Barqarorlik shartlariga bog'langan kreditlar (Sustainability-Linked Loans - SLL): Bu kreditlarda foiz stavkasi kompaniyaning aniq ESG ko'rsatkichlariga (KPI) erishish darajasiga bog'liq bo'ladi. Agar kompaniya uglerod chiqindilarini kamaytirsas, bank kredit foizini tushirib beradi<sup>44</sup>.

4. Iqlimiy va tabiiy ofat fondlari: Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB) ko'magida tashkil etilgan ushbu fondlar iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga keladigan tabiiy ofatlar xavfini sug'urtalash va moslashuv investitsiyalarini kiritish bilan shug'ullanadi

Osiyo moliya bozorlariga kiritilayotgan barqaror sarmoyalar makroiqtisodiy darajada yuqori **multiplikativ samara** beradi. Ushbu ta'sirlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

#### **Iqtisodiy va tizimli ta'sirlar:**

- Yangi innovatsion ish o'rinlari yaratilishi: QTE sektori, elektr transport vositalari va eko-infratuzilma an'anaviy tarmoqlarga qaraganda ko'proq yuqori malakali ish o'rinlarini yuzaga keltiradi<sup>45</sup>.
- Texnologik innovatsiyalarning rag'batlantirilishi: ESG talablari korxonalarini energiya tejovchi mikrochiplar, yuqori quvvatli akkumulyatorlar va yashil raqamli texnologiyalarni yaratishga undaydi.
- Uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlik: qazib olinadigan yoqilg'ilar importiga qaramlikning kamayishi davlatlarning to'lov balansini yaxshilaydi va tashqi iqtisodiy shoklardan himoya qiladi<sup>46</sup>.

#### **Ekologik ta'sirlar:**

- Karbon chiqindilarining keskin pasayishi: Sanoat va energetikada dekarbonizatsiya jarayonlarining tezlashishi global iqlim isishini 1.5 C° darajada jilovlash bo'yicha Parij kelishuvi maqsadlariga xizmat qiladi.
- Tabiiy resurslar samaradorligi: Suv va yer resurslaridan tejamkor foydalanish, aylanma iqtisodiyot prinsiplarining ishlab chiqarishga integratsiyasi tabiiy kapital degradatsiyasini to'xtatadi.

Umuman olganda, Osiyo mintaqasida barqaror investitsiyalar va yashil moliyaviy instrumentlarning keng joriy etilishi nafaqat moliya bozorlarining diversifikatsiyasini kuchaytirmoqda, balki iqtisodiy rivojlanishning yangi, ekologik jihatdan mas'uliyatli modelini shakllantirmoqda. Yashil obligatsiyalar, yashil sukuklar, ESGga bog'langan kreditlar va iqlim fondlari kabi vositalar kapital oqimini an'anaviy sektorlar bilan bir qatorda ekologik va innovatsion yo'nalishlarga yo'naltirib, mintaqaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Natijada, Osiyo mamlakatlari bir tomondan iqtisodiy o'sish va texnologik innovatsiyalarni jadallashtirsas, ikkinchi tomondan karbon chiqindilarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va iqlim

<sup>44</sup> OECD. Responsible Business Conduct and Sustainable Finance: Policy Actions and Market Practices / Organisation for Economic Co-operation and Development. – Paris: OECD Publishing, 2023. – P.49

<sup>45</sup> International Energy Agency (IEA). World Energy Investment Report 2022: Focus on the Asia-Pacific Region / IEA. – Paris: IEA Publications, 2022. – P.64

<sup>46</sup> World Bank. Sustainable Finance and Climate Investment in Emerging Economies / World Bank. – Washington: The World Bank Group, 2022. – P.108

o'zgarishiga moslashish orqali global barqaror rivojlanish jarayonida muhim strategik o'rin egallamoqda.

### **Mintaqa mamlakatlari tajribasining rivojlanayotgan mamlakatlar va O'zbekiston moliya bozori uchun institutsional ahamiyati**

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining yashil moliya bozorini shakllantirish strategiyasi O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va milliy moliya tizimini isloh qilish borasidagi ustuvor yo'nalishlari bilan bevosita uyg'unlashadi. Ushbu tajribalar rivojlanayotgan davlatlar uchun institutsional jihatdan muhim bo'lib, ular moliyaviy tizimni barqarorlik tamoyillari asosida modernizatsiya qilishda amaliy yo'l xaritasi vazifasini bajaradi.

O'zbekiston uchun mintaqada mamlakatlari tajribasidan olinadigan asosiy saboqlar quyidagilardan iborat:

1. Davlat va Markaziy bankning regulyativ yetakchiligi: Xitoy (PBOC) va Singapur (MAS) tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil moliya bozori samarali ishlashi uchun davlat va Markaziy bank tomonidan aniq taksonomiya, ESG standartlari hamda monitoring mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur. Bunday yondashuv tijorat banklariga yo'naltiruvchi signal beradi va yashil kreditlash hamda ESG investitsiyalarini tizimli ravishda kengaytirishga imkon yaratadi. O'zbekiston sharoitida ham banklar uchun majburiy ESG skrining, risklarni baholash mezonlari va ekologik hisobot standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Islomiy moliya va yashil sarmoyalarni sinergiya qilish: Indoneziya va Malayziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil sukuk kabi instrumentlar orqali islomiy moliya tamoyillarini ekologik loyihalar bilan uyg'unlashtirish keng investitsion bazani shakllantiradi. O'zbekiston uchun ham ushbu model ayniqsa dolzarb bo'lib, u Yaqin Sharq va Osiyo islom moliya markazlaridan kapital jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada qayta tiklanuvchi energetika, suv resurslarini boshqarish va yashil infratuzilma loyihalari uchun uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari yaratiladi.

3. Qayta tiklanuvchi energetika (QTE) uchun jozibador bozor mexanizmlarini yaratish: Vetnam tajribasidan kelib chiqib, davlat tomonidan kafolatlangan uzoq muddatli elektr energiyasi xarid shartnomalari (PPA – Power Purchase Agreement) investorlarga barqaror daromad kafolatini beradi va xatarlarni kamaytiradi. Bu esa xorijiy investorlar uchun bozorni jozibador qiladi hamda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini tezkor rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston uchun bunday mexanizmlarni takomillashtirish energiya diversifikatsiyasi, importga bog'liqlikni kamaytirish va yashil energiya ulushini oshirishda muhim institutsional vosita bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, ushbu tajribalar O'zbekiston uchun nafaqat moliyaviy instrumentlar nuqtai nazaridan, balki institutsional islohotlar, regulyativ tizimni modernizatsiya qilish va xalqaro kapital bozorlariga integratsiya jarayonida ham strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

### **Xulosa**

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi barqaror investitsiyalarni rivojlantirish va amaliyotga joriy etish bo'yicha global miqyosda eng mukammal va diversifikatsiyalashgan institutsional modelni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Xitoyning davlat darajasidagi yashil moliya tizimi, Yaponiyaning vodorod energetikasi va tizimli ESG integratsiyasi, Janubiy Koreyaning "Yashil yangi kursi", shuningdek Singapur va Indoneziyaning innovatsion moliya hamda Sukuk

instrumentlari barqaror rivojlanish maqsadlariga faqatgina xususiy va davlat kapitalining strategik ittifoqi orqali erishish mumkinligini isbotladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, iqtisodiy modernizatsiya bosqichida turgan O'zbekiston uchun Osiyo tajribasini tizimli o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish hayotiy ahamiyatga ega. Milliy moliya qonunchiligiga ESG mezonlarini kiritish, yashil va islomiy moliya instrumentlarini uyg'unlashtirish hamda ekologik loyihalarni davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish mamlakatimiz iqtisodiyotining uzoq muddatli yashil, barqaror va raqobatbardosh o'sishini kafolatlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD. Responsible Business Conduct and Sustainable Finance: Policy Actions and Market Practices / Organisation for Economic Co-operation and Development. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 84 p.
2. Asian Development Bank (ADB). Green Finance Development in Asia and the Pacific: Institutional Frameworks and Market Innovations / ADB. – Manila: Asian Development Bank, 2022. – 142 p.
3. World Bank. Sustainable Finance and Climate Investment in Emerging Economies / World Bank. – Washington: The World Bank Group, 2022. – 128 p.
4. United Nations. Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development / United Nations General Assembly. – New York: UN Secretariat, 2015. – 41 p.
5. International Energy Agency (IEA). World Energy Investment Report 2022: Focus on the Asia-Pacific Region / IEA. – Paris: IEA Publications, 2022. – 186 p.
6. People's Bank of China (PBOC). Green Finance Guidelines and Regulatory Framework in the Banking Sector / PBOC. – Beijing: China Financial Press, 2021. – 64 p.
7. Global Sustainable Investment Alliance (GSIA). Global Sustainable Investment Review 2022 / GSIA. – Melbourne: GSIA Publications, 2022. – 98 p.
8. <https://greenfdc.org/china-green-finance-status-and-trends-2025-2026/>
9. <https://www.weforum.org/stories/2025/07/chinas-green-transformation/>
10. <https://www.theguardian.com/world/2026/feb/05/china-green-energy-sector-investment-growth>
11. <https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2025/china>
12. China Pulls Far Ahead in Green Energy Investment <https://www.statista.com/chart/34682/global-investment-in-renewable-power-and-fuels/>
13. <https://www.lse.ac.uk/granthaminstitute/publication/chinas-green-leap-outward-the-rapid-scale-up-of-overseas-chinese-clean-tech-manufacturing-investments/>
14. [https://www.ey.com/en\\_cn/insights/china-opportunities/how-is-china-creating-an-environment-for-world-class-green-investment](https://www.ey.com/en_cn/insights/china-opportunities/how-is-china-creating-an-environment-for-world-class-green-investment)
15. <https://www.nature.com/articles/s41599-026-07607-z>
16. <https://www.gsi-alliance.org/wp-content/uploads/2024/01/Japan.pdf>
17. <https://www.wri.org/insights/sustainable-investing-japan-2-ways-build-rising-enthusiasm>

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-6, ISSUE-5

18. <https://www.greenfinanceplatform.org/case-studies/japan-integrating-sustainability-goals-across-investment-industry>
19. <https://www.japanmeetings.org/why-japan/sustainability/>
20. [https://www.lseg.com/content/dam/ftse-russell/en\\_us/documents/research/japan-sustainable-investment.pdf](https://www.lseg.com/content/dam/ftse-russell/en_us/documents/research/japan-sustainable-investment.pdf)
21. Government of the Republic of Korea. Korean New Deal Policy Briefs: Green New Deal Strategy. Seoul, 2021.
22. International Energy Agency (IEA). Korea Energy Policy Review 2024. Paris, 2024.
23. <https://www.investkorea.org/ik-en/pgm/i-3037/cntnts/front/sst-list.do>
24. World Bank. Republic of Korea: Climate and Green Finance Overview. Washington, DC, 2023.
25. <https://www.unepfi.org/regions/asia-pacific/asean-taxonomies-analysis/>
26. [https://asean.org/wp-content/uploads/2025/10/AIR2025\\_rev17-Okt.pdf](https://asean.org/wp-content/uploads/2025/10/AIR2025_rev17-Okt.pdf)
27. <https://sea.ub-speeda.com/my/asean-insights/trend-reports/sustainability-and-investment/>
28. <https://asean.org/wp-content/uploads/2026/04/ASEAN-Sustainable-Investment-Guidelines-ASIG.pdf>
29. <https://aseanenergy.org/topics/green-finance-and-investment>
30. <https://asean.org/asean-member-states-collaborates-with-uk-and-escap-through-the-asean-green-investment-catalyst-agic/>
31. <https://www.sc.com.my/api/documentms/download.ashx?id=3c4f768f-a290-4722-b9d1-ef55942fbfde>
32. <https://aseanenergy.org/topics/green-finance-and-investment>
33. <https://asean.org/our-communities/economic-community/investment-2/>
34. [https://www.aseanstats.org/wp-content/uploads/2024/06/ASEAN-Statistical-Brief-Vol-9-June-2024\\_fn.pdf](https://www.aseanstats.org/wp-content/uploads/2024/06/ASEAN-Statistical-Brief-Vol-9-June-2024_fn.pdf)